

TADQIQOT VA INNOVATSIYALAR JURNALI

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

NAVRUZOVA Muyassar Gaybullayevna

BuxDu dotsenti

f.f.f.doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15442890>

TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDA NOMINATIV FUNKSIYALARNING IFODALANISHI

ANNOTATSIYA

Insonning tevarak-atrofdagi voqelikni bilish yo'li hamisha so'z bilan birga kechgan. Inson o'zining barcha yutuqlari va kashfiyotlarini til vositalari bilan belgilagan. Har bir birlikni atash jarayonida o'zining ijtimoiy tajribasi va amaliy ehtiyojlariga tayangan.

Inson ko'plab kasalliklarga chalinishi mumkinligi va hayoti davomida tibbiyot fani bilan bir necha bor to'qnash kelishi sababli, tibbiy tushunchalarga nom berish zarurati orqali tibbiy atamalar paydo bo'lgan. Ushbu maqolada tibbiyot terminologiyasida nominativ funksiyalarning ifodalanishi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, terminologizatsiya, adabiy til, dialektal terminologiya, leksik birlik, so'z birikmalari, nutq, tibbiy xodimlar nutqi, umumiste'mol leksika, umumiy atamalar, maxsus keng atamalar, maxsus tor atamalar.

EXPRESSION OF NOMINATIVE FUNCTIONS IN MEDICAL TERMINOLOGY

ANNOTATION

A person's way of knowing the tevarak-the surrounding reality has always been accompanied by words. Man marked all his achievements and discoveries with the means of language. In the process of calling each unit, he relied on his social experience and practical needs.

Since a person can suffer from many diseases and repeatedly clash with medical science during his life, medical terms have arisen through the need to name medical concepts. This article reflects on the expression of nominative functions in medical terminology.

Keywords: communication, terminologization, literary language, dialectal terminology, lexical unit, vocabulary, speech, medical staff speech, general-negative lexicon, general terms, Special broad terms, Special narrow terms.

ВЫРАЖЕНИЕ НОМИНАТИВНЫХ ФУНКЦИЙ В МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

Путь познания человеком окружающей действительности всегда сопровождался словом. Все свои достижения и открытия человек отмечал средствами языка. В процессе наименования каждой единицы он опирался на свой социальный опыт и практические потребности.

Поскольку человек может страдать многими заболеваниями и неоднократно сталкиваться с медицинской наукой в течение своей жизни, медицинские термины возникли из-за необходимости давать названия медицинским концепциям. В этой статье представлен обзор выражения номинативных функций в медицинской терминологии.

Ключевые слова: общение, терминологизация, литературный язык, диалектная терминология, лексическая единица, словарный запас, речь, речь медицинского персонала, общеупотребительная лексика, общие термины, специальные широкие термины, специальные узкие термины.

Bugun tubbiyot lingvistikasi til nominatsiyasi muammolariga katta e'tibor qaratmoqda. Bizning ishimiz bevosita tibbiy birliklarni o'rganishga bag'ishlanganligi sabab, dastlab nominatsiya nazariyasining ba'zi umumiy masalalarini yoritish va terminologik nominatsiyaga batafsilroq to'xtalib o'tishni lozim topdik.

"O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi"da nominatsiya (lotincha nominatio – (nomlash, nom qo'yish, atash) tilshunoslikda nomlash xususiyatiga ega bo'lgan, , ya'ni nolisoniy borliq unsurlariga nom berish va ularni ajratib ko'rsatish, ular haqida tegishli tushunchalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan til birliklari – so'zlar, so'z birikmalari, frazeologizmlar, gaplardir. Nominatsiya jarayonining natijasi hisoblangan ma'noli til birligi ham ayni shu termin orqali ifodalanadi. Ayrim olimlar nominatsiya terminini tilshunoslikning nomlash jarayonlari tarkibini o'rganuvchi bo'limini bildirish uchun ham qo'llaydilar .

Bugungi kunda tilimizda yangi paydo bo'lgan va o'zlashayotgan, shuningdek butun dunyoni larzaga solayotgan "COVID-19" nomli o'tkir respirator kasalligini olsak. Mazkur tibbiy termin mutlaqo yangi termin bo'lib, inglizcha "SO"-korona, "VI"-virus, "D"-kasallik demakdir.

Dastlab, ushbu kasallik 2019 yilgi koronavirus yoki "2019-nCov" deb nomlangan. Tekshiruvlar natijasida, keyinchalik ushbu koronavirusning genetik tuzilishiga ko'ra, 2002 yili Xitoyning Guandun viloyatida paydo bo'lgan "og'ir darajadagi o'tkir respirator sindromi (inglizcha "SARS" Severe acute respiratory syndrome) koronavirusi bilan o'zaro o'xshash jihatlari mavjudligi aniqlandi. Koronavirslarning oddiy gripp viruslaridan farqi shundaki, ular nafaqat inson, balki qush, mushuk, it, qoramol, tuya, cho'chqa va quyonlar kabi hayvonlarni shikastlaydi, balki virus mazkur hayvonlar badanida genetik mutatsiyaga yo'liqadi. Buning natijasida, uning xavfliligi, kuchliligi, o'tkirligi, va murakkabligi bir necha barobar ortib ketadi. Bunday viruslar yuqqan organizmda kasallik sindromlari tipik emas atipik xususiyat kasb etadi.

Masalan, virus yuqishi natijasida paydo bo'luvchi o'pka yallig'lanishi oddiy holatdagidan ko'ra kuchliroq va o'tkirroq tarzda namoyon bo'ladi. Bunday viruslar, muolajaga osonlikcha "bo'yin egmasligi" va agressivligi bilan ajralib turadi. Goho, kasallik simptomlari oddiy diareya, interit kabi qorin og'rig'i va ich ketish ko'rinishida ham zohir bo'lishi mumkin. Bunday holatda, kasallikka qarshi barcha chora-tadbirlarni qo'llash bilan birgalikda, eng samarali chora kasallik o'chog'ini chegaralab qo'yish hisoblanadi. Birdan boshlanib, tez tarqalib, ko'pchilikning o'limiga sabab bo'luvchi yuqumli kasalliklar umumiy nominativ tamoyil asosida vabo, o'lat va to'vun deb ataladi. Bugungi kunda "COVID-19" deb nomlangan, o'tkir respirator kasalligi mutaxassislar tilida epidemiya emas, pendemiya deb atalmoqda va dunyoning 220 dan ortiq davlatlariga tarqalgan

Nominatsiya usuli – motivlovchi belgi bilan ifodalangan nominatsiya tamoyilini amalga oshirish, ro'yobga chiqarish usuli. U bevosita (motivlovchi belgi bevosita, ya'ni asos, uni ifodalovchi so'zning o'zak morfemasi bilan ifodalanganda; masalan, "qizilcha" nominatsiyasi "qizil" rang sifatidan, "sarg'ayma" "sariq" – "sariq" va h.k.) va bilvosita (motivlovchi belgi tilda allaqachon mavjud bo'lgan boshqa so'z bilan assotsiatsiya orqali ifodalanganda) bo'lishi mumkin. Masalan, Gul – bu ot, ya'ni gul I (B.Miller, Persidsko-russkiy slovar, (PRS, (1953) 425) da gol shaklida, (TjRS, 106)da gul shaklida keltirilgan; demak, o'zbek tiliga tojik tilidan olingan; "o'simlikning urchish uchun xizmat qiladigan gulbarg, changdon, gulkosadan iborat qismi", "chechak" ma'nolarini anglatadi (O'TIL, I, 195). Bu ot bilan o'zbek tilida gulla-fe'li, gulchi oti yasalgan, gulqaychi qo'shma oti tuzilgan.

Gul – bu ot, ya’ni gul II ma’no taraqqiyoti yo’li bilan gul I otining “qizil rangli gul” ma’nosidan o’sib chiqqan bo’lib, “qizilcha, qizamiq” kabi kasalliklarda badanda paydo bo’ladigan mayda qizil rangli toshma” ma’nosini anglatadi (O’TIL, I, 196).

Gul leksemasining ikkinchi – qizilcha, qizamiq, chechak ma’nolari uning dastlabki ma’nosidan hosil qilingan. Bu yerda ma’no ko’chishining metafora usuli (yunoncha metaphora – “ko’chirma”) reallashgan. Ya’ni biror predmet yoki hodisning boshqa bir shunday predmet, hodisa bilan o’zaro o’xshashlik asosida nomlanishi kuzatiladi. Aslida qizilcha, qizamiq, chechak kasalliklari o’zaro farqli (ayni paytda, xususiyatlari va ko’rinishi o’xshash) kasalliklar bo’lsa-da, ularni qadimda bir so’z bilan, ya’ni gul deb qo’ya qolishgan.

Gul II (qizamiq) – o’tkir yuqumli kasallik bo’lib, tana haroratining ko’tarilishi, umumiy intoksikatsiya, yuqori nafas yo’llari va ko’z shilliq pardasining yallig’lanishi hamda badanga qizil, yirik dog’li toshmalar toshishi bilan kechadi. Qizamiq Yer yuzida eng keng tarqalgan, virusli infeksiyalardan, unga barcha yoshdagi kishilar, asosan yosh bolalar beriluvchan bo’ladi. Kasallik mavsumiy bo’lib, kuz-qish va bahorda ko’proq uchraydi.

Shunday qilib, nominatsiya usuli va nominatsiya tamoyilining nisbati haqida gapiradigan bo’lsak, u shakl va mazmun nisbati bilan bir xil bo’ladi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda nominatsiya vositalari sifatida tilning fonetik, morfologik, leksik-frazeologik va sintaktik vositalari ko’rib chiqiladi. Nominatsiya tamoyillari, usullari va vositalaridan foydalanish motivlashgan birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo’lishi olimlar tomonidan qayd etilgan.

Tibbiyotga oid nominativ birliklarni uchta asosiy guruhga bo’lishimiz mumkin:

- anatomik;
- klinik;
- farmatsevtik ularning har biri o’ziga xos tushunchalar doirasini belgilaydi.

Anatomik terminologiya inson a’zolari va ularning funksiyalarini, klinik terminologiya esa kasalliklarning nomlari va farmatsevtik terminologiya dori-darmonlarga nom berishni ularning belgilari, og’riqli holatlarini anglatadi.

Anatomik terminologiya tibbiyot terminologiyasining fundamenti hisoblanadi. Anatomik terminlar lotin tilida(ba’zan lotin tiliga o’zlashgan yunon tilida) nomlanadi. Anatomik terminlarning bir tilda nomlanishi ularning son jihatdan oshib ketishiga yo’l qo’ymaydi. Anatomik terminologiya inson tanasining barcha qismlari sanalib, somatik birliklar deb nomlanadi.

Somatik leksika tarkibiy qismlari sifatida inson tanasining qismlari, hayvonlar tanasining qismlaridan tashkil topgan birliklar tushuniladi. Bu atama biologiyada, tibbiyotda “inson tanasi bilan bog’liq narsa” ma’nosida ishlatilishi mumkin.

Tilshunos olim N.M. Shanskiy somatik lug’atning uch guruhini aniqlagan:

1) Erkak va ayol tanasining o’ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq tananing umumiy belgilari yoki inson tanasining qismlari va ismlari.

2) inson tanasining hayotiyligini va hayotiy funktsiyalarini ta’minlaydigan ichki organlarning belgilari.

3) Inson tanasi va uning a’zolari moddasining belgilanishi.

Barcha somatik lug’atlar nominatsiya obyektining xususiyatiga qarab R.Yu.Mugu asarida berilgan quyidagi guruhlariga bo’linadi :

1) inson tanasining qismlari va joylarini (bosh, burun, ko’z va boshqalarni) belgilash uchun ishlatiladigan somonik (yunoncha soma – tana + onim – ism, nom) so’z birikmasi;

2) inson tanasining suyaklari va bo’g’imlari (endokondral suyak, tendon va boshqalar) uchun ishlatiladigan osteonimik (yunoncha osteon-suyak) lug’at;

3) inson tanasining ichki a’zolarini (yurak, buyrak, jigar va boshqalarni) nominatsiyalashga xizmat qiladigan splanchnik (yunoncha splanchna – ichkaridan) so’z birikmasi;

4) angionimik (yunon tilidan. angeion – tomir) so’z birikmasi, inson tanasining qon aylanish tizimini (tomir, kapillyar, arteriya va hokazo) nominatsiyalash uchun xizmat qiladi;

5) yuz ifodalari – yuz mushaklarining mazmunli sobit pozitsiyalari. Agar pozlar imoishoralarning statik analogi bo'lsa, u holda mimikalar yuz ifodalarining statik analogidir;

6) inson tanasining sezgi a'zolarini (hid, eshitish, teginish va boshqalarni) ifodalash uchun ishlatiladigan sensonimik (lot. Sensus – his) lug'ati;

7) inson tanasining kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishini bildiruvchi so'z boyligi (infarkt, gripp, saraton va boshqalar).

Bundan ko'rinadiki, anatomik birliklar, ya'ni inson tana a'zolari yoki ularning qismlari nomi tibbiy atamalar tarkibida alohida o'rin tutadi va ularning shakllanishida asos sifatida xizmat qiladi.

Xalq tilida aksariyat kasalliklarning nomi og'rgan, xastalangan, kasallikka chalingan tana a'zolarining nomi bilan bog'lab aytilishi kuzatiladi. Jumladan, bosh og'rig'i, quloq og'rig'i, til og'rig'i, tish og'rig'i, oyoq og'rig'i, bel og'rig'i, qo'l og'rig'i, oshqozon og'rig'i kabi.

Tilda inson a'zolari (bosh, oyoq, quloq, tish, qo'l, yurak, o'pka, oshqozon va hokazolar) bilan bog'liq kasallik nomlari alohida leksik tizimni tashkil qiladi.

Bundan xalq tilidagi kasallik nomlarining makro va mikro leksik-semantik maydonlarini hosil qilishi anglashiladi. Ularni mikro leksik-semantik maydonlarga ajratishda insonning qanday xatti-harakati tizimiga shikast yetishiga qarab quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Inson aqliy va ruhiy, asab tizimi, fikrlashi, o'ylashi, qarorlar qabul qilishi jarayonining buzilishini ko'rsatuvchi kasalliklar: quyunchiq, jinni, aljiragan...

2. Ko'rish harakati bilan bog'liq kasalliklar: ko'r, shabko'r, ko'zi butov, ko'ziga gul tushmoq, ko'zi oqarmoq, ko'zi qizarmoq, ko'zi xiralashmoq, ko'zidan nur ketmoq kabi.

3. Eshitish harakati shikastlanishi bilan bog'liq kasalliklar: kar, qulog'i og'ir, quloqog'riq kabi.

4. Hid va ta'm bilish harakatini kamaytiruvchi kasalliklar: burun bitishi, tumov, til og'riq kabi.

5. Yeyish harakatini qiyinlashtiruvchi kasalliklar: til og'riq, og'iz og'riq, tomoq og'riq, iyak tushishi kabi.

6. Tishlash, chaynash harakatini buzuvchi kasalliklar: tish og'riq, til og'riq, og'izog'riq, iyak tushishi kabi.

7. Olish-berish harakatini cheklovchi kasalliklar: qo'l sinishi, qo'l sholliqi kabi.

8. Borish-kelish, yurish harakatini cheklovchi kasalliklar: oyoq sinishi, oyoq sholliqi kabi.

9. Hazm qilishni qiyinlashtiruvchi kasalliklar: oshqozonog'riq, ichak buzilishi, ichburug' kabi.

Kasallik nomlari bu tarzda alohida-alohida o'rganilsa ham, ular inson tana a'zolarining harakatlanishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi va bir-biriga bog'lanib ketadi. Shuning uchun ular tilning leksik tizimida alohida mikromaydon sifatida qabul qilinib, muayyan lug'aviy ma'noviy guruhlar sinfi sifatida e'tirof etiladi.

Klinik terminologiya – bu barcha tibbiy birliklarning yig'indisi. Kasalliklar, tibbiy asboblarning nomlari, davolash usullari, barcha bemorlarni davolashda bevosita taaluqli bo'lgan atovchi birliklardan iborat. Kasallik – ibtidoiy davr odamlarining yashashi uchun qarshi kurash jarayonining mahsuli desa bo'ladi. Har bir tirik mavjudotning organizmi kasalliklarga qarshilik ko'rsatuvchi biologik xususiyatga ega. O'tmishi va uzoq tarixi bor xalqimizda ham kasallik turlicha talqin va tasavvurlar uyg'otgan.

Ibtidoiy davrda kasalliklar Xudodan deb faraz qilingan. Xalq davolanish uchun Xudo va payg'ambarlarga sajda qilish orqali diniy marosimlar o'tkazgan. Keyinchalik tabiblar og'ir jismoniy va ruhiy hayot kechirayotgan, moddiy jihatdan ta'minlanmagan va og'ir mehnat sharoitida ishlovchi kishilarda har xil kasalliklar ko'p uchrashini ko'zdan kechirib, shu omillar kasallikni keltirib chiqarar ekan, degan xulosaga kelganlar.

Har bir tilda kasallik tushunchasini umumlashtirib nomlovchi birliklar mavjud.

O'zbek tilshunosligida M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari kasallikning turli xil talqinlari haqida ma'lumot beruvchi ilk lingvistik lug'at sifatida ishda tahlilga tortildi. "Devonu lug'otit turk"dagi "kasallik" ni asosiy xususiyatlarini asardagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda quyidagicha izohlash mumkin:

1) jismoniy va ruhiy sogʻliq bilan bogʻliq holatlar (kasallikning turi, belgilari, inson va hayvonga aloqador umumiy kasalliklar);

2) mistik va empirik tabobatga doir tushunchalar (eski turkiy qam/shaman mistik tabobati va XI asr xalq tabobatiga xos tushunchalar);

3) davo muolajalari, dori-darmonlar, tibbiy asbob-uskunalarga doir tushunchalar (“sogʻlom/kasal odam” tushunchasi, dori-darmon, qam, shaman va tabiblarning davo usullari va vositalari,

4) gigiyena (toza-ozodalik)ga doir maʼlumotlar.

Kasallik nomlarining taraqqiyoti va tarixiy bosqichlardagi oʻzgarishlar doimiy ravishda dolzarb muammolar qatoridan oʻrin egallab kelmoqda. Har qanday sohaga oid atama qanchalik sinxron, yaʼni til xodisalarining hozirgi holati haqida boʻlmasin, u qisman diaxron yaʼni tarixiy boʻladi, chunki tadqiq qilinayotgan material maʼlum vaqt oraligʻida oʻzgaradi. Tadqiqotimiz natijasida folklor tilida ham bir qancha kasallik nomlarini yaratiganligini keltirib oʻtdik.

Diaxron qoʻllanishi	Sinxron qoʻllanishi
Qora qushi bor	tutqanogʻi yoki sudurgisi bor
Qaqturmoq	boshiga urdirmoq
Qamgʻirmoq	yuzi qiyshaymoq
Sach tashdi	soch oldi
Bagʻqirdi	jigarga yopishdi
Tirmaldi	tirnaldi
Qartaldi	shilindi
Bartindi	zaiflik paydo boʻldi
Bogʻlundi	boʻgʻildi
Bash tersindi	bitgan yara qaytalandi
Olindi tolgʻandi	darddan toʻlgʻandi
Erlandi	ogʻridi, kasal boʻldi
Qan bagʻirlandi	qon ividi

“Badik” – badanga toshma toshishi bilan bogʻliq kasallik nomi ham diaxron mohiyatga ega. Demak, “badik” soʻzining tarkibi hozirgi paytda “baz+ik” koʻrinishida morfemik qismlarga boʻlinmaydi. Garchi hozir +ik ot soʻz yasovchi qoʻshimchasi boʻlsa-da, bu oʻrinda u qotib qolgan, ajratilmaydi. Aytaylik, badik, kishi badaniga gul, gulafshon, suvchechak, qizilcha, eshakemi kabi toshmalar toshganda, ularni daf etish uchun ijro etiladi.

Badik atamasining «titroq», «larza» soʻzlaridan kelib chiqqanligi xususida M.Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk» asarida qiziqarli maʼlumot bor. Badik soʻzi qadimgi turkcha «bez» – «qaltiramoq» feʼli oʻzagiga -k(ooʻk) yasovchi qoʻshimchasi qoʻshilishi va keyinchalik talaffuzda «z» tovushining «d» tovushi bilan almashinishi natijasida kelib chiqqan. «Bezgak» kasalligining nomi ham shu soʻz bilan oʻzakdoshdir. «Qaltiramoq» maʼnosini anglatuvchi badik soʻzi kishi badaniga qizilcha yoki eshakemi toshganda bemorlanib, qattiq isitma chiqarganda toʻxtovsiz qaltirashi holatini ifoda etadi va bu kasallikni daf qilish uchun oʻtkaziladigan marosim hamda unda oʻqiladigan matn nomini atab kelgan.

Jarohat leksemasi oʻzbek tiliga shu qadar singib ketganki, tilimizda xuddi oʻzbekcha soʻz kabi ishlatiladi. Biroq ushbu soʻzning shikast, yara kabi maʼnolari yetakchi oʻrin tutadi. Ushbu soʻz tilda koʻchma maʼnoda yurakdagi alam, yara, dogʻ singari maʼnolarda ham qoʻllaniladi, masalan, qalb jarohati, til jarohati kabi. Masalan, Yomon soʻz insonning yuragini jarohatlaydi va bu jarohat bir umr ketmaydi.

Insult – (lot. Insult – chovut solmoq, hujum qilmoq), bosh miyada qon aylanishining to‘satdan buzilib, miya to‘qimasining zararlanishi va faoliyatining izdan chiqishi; miyaga qon quyulishi yoki miyaning bir qismida qon bilan ta‘minlanishning birdan buzilishi. Masalan, Qo‘shnimiz Yo‘ldosh aka insult kasalligi sababli 68 yoshida vafot etdi. Ko‘pincha tananing o‘ng yoki chap qismi falaj bo‘ladi (gemiplegiya), bemor tildan qoladi, tuzuk gapira olmaydi, nutqi buziladi. Kasallik insonning xotira va eslash qobiliyatiga ham ta‘sir qiladi.

Insult termini tilimizga lotin tilidan o‘zlashgan bo‘lib, kasallikning umumiy nomini anglatadi, ot turkumiga mansub, turdosh ot va nima so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Infarkt – (lot. Infarctus – to‘ldiraman, tiqishtiraman), odam organizmida uzoq vaqt qon yetishmasligi, shuningdek to‘satdan qon aylanishining buzilishi natijasida a‘zo yoki to‘qimaning biror qismi halok bo‘lishi, nekrozga uchrashi. Masalan, Professor K.Nazarov infarktni boshidan o‘tkazganligi bois, odamlar bilan juda ehtiyot bo‘lib, vazminlik bilan munosabat qilardi. Infarkt deyarli barcha a‘zolar (yurak, o‘pka, buyrak, taloq, ichaklar, bosh miya va b.)da kuzatiladi.

Infarkt termini lotincha, ot turkumiga kiradi va nima so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Istisqo – (arabcha), yurak, buyrak va boshqa organlarning kasallanishi natijasida odam tanasi to‘qimasida suv to‘planishi kasalligi (transsudat). Masalan, Men falon boyvachchaning xotini bo‘lar edim. U kishi yaqinda istisqo kasali bilan o‘ldi (G‘.G‘ulom, “Tirilgan murda”). Suyuqlik qaysi a‘zoda to‘planishiga qarab, bosh miya, ko‘krak, moyak, qorin va boshqa a‘zolar istisqosi farqlanadi.

Istisqo termini arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan, turdosh ot, nima so‘rog‘iga javob bo‘ladi va kasallikning umumiy nomini bildiradi.

Umuman tibbiyot, kasalliklar va ularni davolash usullarini bilish har bir inson uchun zarur bo‘lgan. Tibbiyotning mavhum tushunchalari ming yillar davomida inson aqli bilan asta-sekin yaratilgan, o‘zgargan, yo‘qolgan va yangi nomlar bilan boyitilib kelinmoqda. Nominativ funksiya bilan tavsiflanadigan, ya‘ni nolisoniy faoliyat fragmentlarini nomlash va ajratish hamda ular haqida til birliklari – so‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologizmlar va gaplarning ma‘nosi shaklida tegishli tushunchalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan til birliklarining hosil bo‘lib, lingvistikaning til nominatsiyasi tadqiqiga yangilik bo‘lsa ajab emas.

IQTIBOSLAR. REFERENCES. CHOSKI.

1. Аллаяров Х. А. История народной медицины Средней Азии: Автореф... дис. д.м.н. – Москва, 1993. – С. 12.
2. Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2010. – 127 б
3. Аллаяров Х. А. История народной медицины Средней Азии: Автореф... дис. д.м.н. – Москва, 1993. – С. 12.
4. Қодиров А. Ўзбекистон тиббиёти тарихи. –Тошкент: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2001. 17-б.
5. Абдулхаирова Ф.Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. фалс. док. дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 17.
6. Қодиров А. Тиббиёт тарихи. -Тошкент: “Ибн Сино”, 1993. 87-89-бетлар.
7. Қосимова Ф. Х. Ўзбек-инглиз тиббий терминлари лингвомаданий бирлик сифатида («хомиладорлик» семали бирликлар мисолида). Ученый XXI века • 2022 • № 2 (83)
8. Абдулхаирова Ф.Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. фалс. док. дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 17.
9. Медицинский справочник. История развития медицины, – М., 2005
10. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V kitob. – Тошкент, 1992. – Б. 29.
11. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V kitob. – Тошкент, 1992. – Б. 29.
12. Абу Бакр Ар-Розий, Касалликлар тарихи. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти. – 1994. – Б.73.
13. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I том. – Т., 1960. – 250 б.; II том. – Т. 1961. – 214 б.; III том. – Т., 1963. – 257 б.
14. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. – Т.: Фан, 1972.
15. Таржумон – XIV аср ёзма обидаси. – Т.: Фан, 1980. – 127 б.
16. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I том. – Т., 1960. – 250 б.; II том. – Т. 1961. – 214 б.; III том. – Т., 1963. – 257 б.